



**DIPLOMATIC AND MILITARY RELATIONS BETWEEN THE SASANIAN
STATE AND THE ROMAN EMPIRE: POLITICAL STRATEGIES AND
REGIONAL IMPACT**

University of Exact and Social Sciences

2nd-year Master's Student

Kilichov Umid Sheraliyevich

Abstract. This article analyzes the diplomatic and military relations between the Sasanian Empire and the Roman and Byzantine Empires from the third to the seventh centuries AD based on historical sources. The study examines the main directions of Sasanian foreign policy, military campaigns, and diplomatic agreements with reference to specific dates. Particular attention is given to the reigns of Shapur I, Shapur II, Khosrow I Anushirvan, and Khosrow II Parviz. The geopolitical significance of Mesopotamia, Armenia, the Caucasus, and Syria is explored, as well as the consequences of competition for control over these regions. The findings help to assess the regional influence of Sasanian foreign policy and its role in the system of late antique international relations.

Keywords: Sasanian Empire, Roman Empire, Byzantine Empire, foreign policy, diplomacy, military conflicts.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sosoniylar davlatining III–VII asrlarda Rim va Vizantiya imperiyalari bilan olib borgan diplomatik va harbiy munosabatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sosoniy hukmdorlarining tashqi siyosiy strategiyalari, harbiy yurishlari hamda diplomatik shartnomalari aniq sanalar bilan yoritiladi. Shapur I, Shapur II, Khosrov I Anushervon va Khosrov II Parviz davrlarida Rim–Sosoniy va Vizantiya–Sosoniy munosabatlarining asosiy xususiyatlari ochib beriladi. Mesopotamiya, Armaniston, Kavkaz va Suriya hududlarining geosiyosiy ahamiyati, ushbu mintaqalarda olib borilgan siyosiy raqobatning oqibatlari koʻrsatib



beriladi. Tadqiqot natijalari Sosoniylar tashqi siyosatining mintaqaviy ta'siri va uzoq muddatli tarixiy ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sosoniylar davlati, Rim imperiyasi, Vizantiya imperiyasi, tashqi siyosat, diplomatiya, harbiy yurishlar.

Аннотация. В статье на основе исторических источников анализируются дипломатические и военные отношения Сасанидского государства с Римской и Византийской империями в III–VII вв. Рассматриваются основные направления внешней политики сасанидских правителей, их военные кампании и дипломатические соглашения с указанием конкретных дат. Особое внимание уделяется периодам правления Шапура I, Шапура II, Хосрова I Ануширвана и Хосрова II Парвиза. Анализируется геополитическое значение Месопотамии, Армении, Кавказа и Сирии, а также последствия борьбы за контроль над этими регионами. Полученные выводы позволяют определить региональное влияние внешней политики Сасанидского государства и её роль в международных отношениях поздней античности.

Ключевые слова: Сасанидское государство, Римская империя, Византийская империя, внешняя политика, дипломатия, военные конфликты.

Sosoniylar davlati va Rim imperiyasi o'rtasidagi diplomatik hamda harbiy munosabatlar milodiy III–IV asrlarda Yaqin Sharq va Old Osiyo mintaqasidagi siyosiy muvozanatni belgilab bergan asosiy omillardan biri bo'lgan. Sosoniylar davlati 224-yilda Ardasher I (hukmronligi: 224–241) tomonidan Parfiya (Arshakiylar) davlatini ag'darish natijasida tashkil etilgan bo'lib, yangi sulola o'zini qadimgi Ahamoniylar imperiyasining (mil. avv. VI–IV asrlar) qonuniy vorisi sifatida e'lon qilgan. Bu mafkuraviy da'vo Rim imperiyasining (mil. avv. 27 – mil. 476) Sharqiy provinsiyalaridagi hukmronligiga bevosita qarshi yo'naltirilgan edi¹. Ayniqsa, Mesopotamiya, Armaniston va Suriya hududlari ikki imperiya o'rtasidagi doimiy

¹ Ammianus Marcellinus. *Res Gestae*. Translated by J. C. Rolfe. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1935–1940. – P. 23–24.



raqobat markaziga aylandi, chunki mazkur mintaqalar harbiy-strategik nuqtai nazardan ham, savdo yo‘llarini nazorat qilish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega edi.

Ardasher I hukmronligi davridayoq (224–241) Sosoniylar va Rim o‘rtasida ilk qurolli to‘qnashuvlar yuz berdi. Rim imperatori Aleksandr Sever (222–235) davrida 230–232-yillarda Sosoniylar qo‘shinlari Rimning Mesopotamiyadagi hududlariga bostirib kirdi. Bu yurishlar Sosoniylar tashqi siyosatining dastlabki bosqichidayoq hujumkor xarakter kasb etganini ko‘rsatadi. Biroq Sosoniy–Rim munosabatlarida haqiqiy burilish Ardasherining o‘g‘li Shapur I (hukmronligi: 241–272) davrida yuz berdi.

Shapur I davrida Sosoniylar davlati Rim imperiyasiga qarshi keng ko‘lamli va tizimli harbiy yurishlar olib bordi. 243–244-yillarda Rim imperatori Gordian III (238–244) Sosoniyarlarga qarshi yurish boshlagan bo‘lsa-da, Mesopotamiyada mag‘lubiyatga uchrab, 244-yilda halok bo‘lgan. Shundan so‘ng Rim imperatori Filipp Arab (244–249) Sosoniylar bilan sulh tuzishga majbur bo‘lib, katta miqdorda tovon to‘lagan. 253–260-yillar oralig‘ida Shapur I Rimning Sharqiy provinsiyalariga uch marta yirik yurish uyushtirdi. 256-yilda Antioxiya shahri egallandi, 260-yilda esa Edessa yaqinida Rim imperatori Valerian (253–260) Sosoniylar tomonidan asir olindi². Rim tarixchisi Lactantius va boshqa antik mualliflar bu voqeani Rim imperiyasi tarixidagi eng katta siyosiy tahqirlardan biri sifatida baholaydi. Valerianning asir olinishi Sosoniylar davlatining harbiy qudratini butun antik dunyoga namoyon qildi.

Shapur I ning Rim ustidan qozongan muvaffaqiyatlari Sosoniylar tashqi siyosatida diplomatik ustunlikni ham ta‘minladi. Naqsh-e Rostam va Bishapur yodgorliklaridagi yozuvlarda Shapur I o‘zini “Eron va noeron mamlakatlarining shohi” deb ataydi, bu esa Sosoniylar hukmdorlarining Rimga nisbatan tenglik emas, balki ustunlik da’vosini aks ettiradi³. Shunga qaramay, III asr oxirlariga kelib Rim imperiyasi

² Procopius of Caesarea. *History of the Wars*. Translated by H. B. Dewing. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1914–1928. – P. 45–47

³ Blockley, R. C. *East Roman Foreign Policy: Formation and Conduct from Diocletian to Anastasius*. Leeds: Francis Cairns, 1992. – P. 54–56



Diokletian (284–305) islohotlari natijasida siyosiy va harbiy jihatdan mustahkamlandi va Sosoniylarga qarshi faol siyosat yurita boshladi.

Bu jarayon 298-yilda Rim imperatori Diokletianning hamhokimi Galeriy (305–311) va Sosoniy shohi Narse (hukmronligi: 293–302) o‘rtasida tuzilgan Nisibis shartnomasi bilan yakunlandi. Mazkur shartnomaga ko‘ra, Sosoniylar Armaniston ustidan nazoratdan voz kechdi, Tigr daryosining g‘arbiy qismidagi besh viloyat Rimga berildi va Nisibis shahri Rim–Sosoniy savdosining yagona rasmiy markazi sifatida belgilandi. 298-yilgi shartnoma Sosoniylar uchun og‘ir diplomatik mag‘lubiyat bo‘lib, Rimning Sharqdagi ustunligini vaqtincha mustahkamlab berdi.

IV asr boshlarida Sosoniylar davlati Shapur II (hukmronligi: 309–379) davrida yana kuchli tashqi siyosat olib bora boshladi. Shapur II Sosoniylar tarixidagi eng uzoq hukmronlik qilgan shoh bo‘lib, uning davrida Rim bilan munosabatlar uzluksiz urushlar va diplomatik muzokaralar bilan kechdi⁴. 337-yildan boshlab Shapur II Rim imperatori Konstantin I (306–337) va undan keyingi imperatorlar bilan Mesopotamiya ustidan nazorat uchun kurash olib bordi. 338–350-yillar oralig‘ida Nisibis shahri uch marta qamal qilindi, biroq Rim uni saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Shunga qaramay, Sosoniylar Amida (359-yil) kabi muhim qal‘alarni egallab, Rimning Sharqiy mudofaa tizimiga jiddiy zarba berdi.

363-yilda Rim imperatori Yulian Apostata (361–363) Sosoniylarga qarshi yirik yurish boshladi. U Ktesifon yaqiniga qadar yetib borgan bo‘lsa-da, janglarda halok bo‘ldi. Uning vorisi Yovian (363–364) og‘ir sharoitda Sosoniylar bilan tinchlik shartnomasi tuzishga majbur bo‘ldi. 363-yilgi shartnomaga ko‘ra, Rim Nisibis shahri va uning atrofidagi besh viloyatdan voz kechdi, shuningdek Armaniston masalasida Sosoniylar ta’sirini tan oldi. Bu shartnoma Sosoniylar uchun 298-yilgi Nisibis shartnomasida yo‘qotilgan strategik mavqening qayta tiklanishini anglatdi.

⁴ Agathias. *Histories*. Translated by J. D. Frendo. Berlin–New York: Walter de Gruyter, 1975. – P. 12–15



Shapur II davrida Armaniston va Kavkaz mintaqasi Sosoniy–Rim raqobatining asosiy maydoniga aylandi. Armaniston ikki imperiya o‘rtasida tampon hudud vazifasini bajargan bo‘lib, bu yerda diniy omil ham siyosiy ahamiyat kasb etdi⁵. Rim imperiyasi xristianlikni (313-yildan rasman tan olingan) siyosiy ta’sir vositasi sifatida qo‘llagan bo‘lsa, Sosoniylar zardushtiylikni mustahkamlash orqali hududiy nazoratni kuchaytirishga harakat qildi. Bu qarama-qarshilik IV asr davomida diplomatik kelishuvlar va harbiy to‘qnashuvlarning uzluksiz davom etishiga sabab bo‘ldi.

V asrga kelib Rim imperiyasi siyosiy jihatdan ikkiga bo‘linganidan so‘ng (395-yil), Sosoniylar davlati asosan Sharqiy Rim imperiyasi — Vizantiya bilan munosabatlarni davom ettirdi. G‘arbiy Rim imperiyasining 476-yilda qulashidan keyin Vizantiya Sosoniylar uchun asosiy siyosiy va harbiy raqibga aylandi. V asr boshlarida Sosoniylar davlati Yazdigard I (hukmronligi: 399–420) davrida Vizantiya bilan nisbatan barqaror va ehtiyotkor diplomatik siyosat olib bordi. Manbalarga ko‘ra, Yazdigard I 408–409-yillarda Vizantiya imperatori Feodosiy II (408–450) bilan diniy masalalarda murosaga kelib, Eron hududidagi xristianlarga nisbatan bag‘rikenglik siyosatini yuritgan⁶. Bu holat Sosoniy–Vizantiya munosabatlarida vaqtinchalik tinchlikni ta’minlagan bo‘lsa-da, strategik raqobat baribir saqlanib qolgan.

V asr o‘rtalarida Sosoniylar davlati Bahrom V Gur (hukmronligi: 420–438) davrida Vizantiya bilan qurolli to‘qnashuvlarga qayta yuz tutdi. 421–422-yillarda yuz bergan Sosoniy–Vizantiya urushi asosan Armaniston va Mesopotamiya hududlarida kechdi. Ushbu urush 422-yilda tuzilgan tinchlik shartnomasi bilan yakunlanib, har ikki tomon diniy bag‘rikenglikni saqlash majburiyatini oldi⁷. Bu kelishuv Sosoniylar va Vizantiya o‘rtasida diplomatik munosabatlarning muhim vositasi sifatida diniy masalaning naqadar ahamiyatli bo‘lganini ko‘rsatadi.

⁵ Lactantius. *De Mortibus Persecutorum*. Translated by J. L. Creed. Oxford: Oxford University Press, 1984. – P. 78–79.

⁶ Eutropius. *Breviarium ab Urbe Condita*. Translated by H. W. Bird. Liverpool: Liverpool University Press, 1993. – P. 56–57.

⁷ Greatrex, G., Lieu, S. N. C. *The Roman Eastern Frontier and the Persian Wars (AD 226–363)*. London–New York: Routledge, 2002. – P. 112–115.



V asr oxiri va VI asr boshlarida Sosoniylar davlati Kavkaz mintaqasida, ayniqsa Iberiya (Kartli) va Lazika (Kolxida) hududlarida o‘z ta’sirini kuchaytirishga intildi. Kavkaz hududi strategik jihatdan muhim bo‘lib, u Shimoliy Qora dengiz, Kaspiybo‘yi va Yaqin Sharq o‘rtasidagi harbiy-siyosiy aloqalarni nazorat qilish imkonini bergan. Sosoniy shohi Kavad I (hukmronligi: 488–496; 499–531) davrida Vizantiya bilan munosabatlar keskinlashdi. 502–506-yillarda Kavad I Vizantiya imperatori Anastasius I (491–518) ga qarshi urush boshladi va Amida shahrini 503-yilda egallashga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu urush natijasida Vizantiya katta miqdorda tovon to‘lashga majbur bo‘ldi, bu esa Sosoniylar davlatining moliyaviy va harbiy imkoniyatlarini mustahkamladi.

Kavad I davrida Sosoniylar tashqi siyosatining muhim jihatlaridan biri ichki ijtimoiy islohotlar bilan tashqi siyosatning o‘zaro bog‘liqligi bo‘ldi. Mazdakiylar harakati (V–VI asrlar) natijasida yuzaga kelgan ichki beqarorlik Sosoniylarni Vizantiya bilan vaqtincha kelishuvlarga borishga majbur qildi⁸. Shu sababli 506-yilda tuzilgan tinchlik kelishuvi Sosoniylar uchun strategik tanaffus vazifasini bajardi.

Sosoniylar davlati tashqi siyosatida eng barqaror va puxta strategiya Xusrav I Anushervon (hukmronligi: 531–579) davrida shakllandi. Xusrav I Sosoniylar tarixida markazlashgan davlat boshqaruvi, soliqlar tizimi va professional armiya yaratgan hukmdor sifatida tanilgan. Uning davrida Vizantiya bilan munosabatlar aniq hisob-kitobga asoslangan real siyosat shaklini oldi⁹. 540-yilda Xusrav I Vizantiya imperatori Yustinian I (527–565) ga qarshi urush boshladi va Antioxiya shahrini egallab, aholining bir qismini Eron hududlariga ko‘chirib yubordi. Bu harakat Sosoniylar tomonidan aholi resurslaridan strategik foydalanish siyosatini ko‘rsatadi.

562-yilda Xusrav I va Vizantiya o‘rtasida “Abadiy tinchlik” nomi bilan mashhur bo‘lgan tinchlik shartnomasi tuzildi. Ushbu shartnomaga ko‘ra, Vizantiya Sosoniylarga yiliga 30 ming solidus miqdorida tovon to‘lash majburiyatini oldi, Kavkaz darvozalari

⁸ Howard-Johnston, J. *East Rome, Sasanian Persia and the End of Antiquity*. Aldershot: Ashgate, 2006. – P. 88–91.

⁹ Theophylact Simocatta. *Historiae*. Translated by M. Whitby and M. Whitby. Oxford: Clarendon Press, 1986. – P. 101–103



(Derbent va Darial yo'llari) mudofaasi Sosoniylar zimmasiga yuklandi va Mesopotamiyada nisbiy barqarorlik o'rnatildi. 562-yilgi shartnoma Sosoniylar diplomatiyasining eng yirik yutuqlaridan biri bo'lib, Vizantiyaning iqtisodiy resurslarini nazorat qilish imkonini berdi.

VI asr oxiriga kelib Sosoniy–Vizantiya munosabatlari yana keskinlashdi. Xusrav II Parviz (hukmronligi: 590–628) davrida bu qarama-qarshilik eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Vizantiya imperatori Mavrikiy (582–602) ning qo'llab-quvvatlashi bilan taxtga chiqqan Xusrav II 602-yilda Mavrikiy ag'darilib o'ldirilgach, bu voqeani bahona qilib Vizantiyaga qarshi keng ko'lamli urush boshladi. 603–628-yillar oralig'idagi urushlar Sosoniylar va Vizantiya tarixidagi eng vayronkor to'qnashuvlar bo'ldi.

Xusrav II davrida Sosoniylar qo'shinlari 611-yilda Antioxiyani, 614-yilda Quddusni, 616-yilda Misrni egalladi. 619-yilga kelib Sosoniylar qo'shinlari Iskandariyagacha yetib bordi. Bu yurishlar Sosoniylar davlatining eng katta hududiy kengayishini ta'minlagan bo'lsa-da, uzoq davom etgan urushlar davlat iqtisodiyotini zaiflashtirdi. Vizantiya imperatori Irakliy (610–641) 622–627-yillarda qarshi hujum boshladi va Sosoniylar hududiga chuqur kirib bordi¹⁰. 628-yilda Xusrav II taxtdan ag'darilib, o'ldirildi, bu esa Sosoniylar davlatida siyosiy inqirozni kuchaytirdi¹¹.

Shu tariqa, V–VII asrlarda Sosoniylar davlatining Rim (Vizantiya) imperiyasi bilan olib borgan siyosati harbiy ekspansiya, diplomatik kelishuvlar va mintaqaviy strategik manfaatlar uyg'unligiga asoslangan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Kavkaz, Armaniston, Mesopotamiya va Suriya hududlari bu raqobatning asosiy maydoniga aylangan bo'lib, Sosoniylar ushbu mintaqalarda kuch ishlatish bilan birga puxta diplomatik siyosat yuritishga intilgan. Aynan ushbu uzoq davom etgan urushlar va siyosiy qarama-qarshiliklar natijasida Sosoniylar davlati VII asr boshlarida

¹⁰ Daryaeae, T. *Sasanian Persia: The Rise and Fall of an Empire*. London–New York: I.B. Tauris, 2009. – P. 45–49.

¹¹ Christensen, A. *L'Iran sous les Sassanides*. Copenhagen: Ejnar Munksgaard, 1944. – P. 55–57



zaiflashib, yangi geosiyosiy kuch — Arab xalifaligi qarshisida barqarorlikni yo‘qota boshladi.

III–VII asrlar oralig‘ida Sosoniylar davlatining Rim va Vizantiya imperiyalari bilan olib borgan siyosati murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, diplomatik va harbiy strategiyalar uyg‘unligiga asoslangan edi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Sosoniylar tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari hududiy kengayish, strategik hududlar ustidan nazoratni mustahkamlash, shuningdek iqtisodiy va demografik resurslardan samarali foydalanish bo‘lgan. Shapur I (241–272) va Shapur II (309–379) davrida Rim bilan bir necha yirik urushlar kechdi, bu urushlar natijasida Mesopotamiya va Armaniston hududlarida harbiy va siyosiy muvozanat o‘rnatildi. Ayniqsa 298-yilda Nisibis shartnomasi va 363-yilda tuzilgan kelishuvlar Sosoniylar va Rim o‘rtasidagi diplomatik kelishuvlarning muhim vositasi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xusrav I Anushervon (531–579) davrida Sosoniylar tashqi siyosati eng barqaror va puxta strategik shaklga kirdi. 540-yildagi urushlar, Antioxiya va Mesopotamiya hududlaridagi harbiy yurishlar hamda 562-yildagi “Abadiy tinchlik” shartnomasi davlatning siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarini mustahkamladi, Vizantiya bilan kelishuvlar orqali hududiy xavfsizlikni ta‘minladi. Shu davrda Kavkaz va Armaniston mintaqalari Sosoniylar uchun nafaqat strategik, balki siyosiy jihatdan ham markaziy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xusrav II Parviz (590–628) davrida esa Sosoniy–Vizantiya munosabatlari eng keskin cho‘qqisiga yetdi. 603–628-yillardagi keng ko‘lamli urushlar, shu jumladan Quddus va Misrni egallash harakatlari, Sosoniylar davlatining hududiy kengayishi va harbiy kuchini namoyon etdi, biroq uzoq davom etgan urushlar iqtisodiy resurslarni zaiflashtirdi. 628-yilda Khosrov II taxtdan ag‘darilishi bilan mamlakat ichki siyosiy inqirozga yuz tutdi, bu esa uzoq muddatli barqarorlikni yo‘qotishiga sabab bo‘ldi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Sosoniylar tashqi siyosati doimo hududiy strategiya, diplomatik kelishuvlar va harbiy kuchni uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi. Rim va



Vizantiya bilan bo'lgan munosabatlar mintaqaviy siyosiy muvozanatni saqlash, Mesopotamiya, Armaniston, Kavkaz va Suriya hududlarida kuchlar nisbati va resurslar ustidan nazoratni o'rnatish bilan chambarchas bog'liq edi. Shu bilan birga, uzoq davom etgan urushlar va ichki siyosiy qarama-qarshiliklar Sosoniylar davlatining uzoq muddatli barqarorligini chekladi va VII asr boshlarida yangi geosiyosiy kuchlar — Arab xalifaligi qarshisida davlatning zaiflashishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, Sosoniylar tashqi siyosati nafaqat harbiy ekspansiya va diplomatik kelishuvlar, balki mintaqaviy strategiya va resurslardan samarali foydalanish orqali Sharqiy Rim (Vizantiya) bilan kompleks munosabatlarni boshqarish imkonini bergan. Ushbu siyosat uzoq muddatli tarixiy oqibatlarni shakllantirib, Sharqiy O'rta asr siyosiy xaritasida Sosoniylar davlatining o'rnini belgiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Antik (yunon va rim) manbalar

1. Ammianus Marcellinus. *Res Gestae*. Translated by J. C. Rolfe. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1935–1940.
2. Procopius of Caesarea. *History of the Wars*. Translated by H. B. Dewing. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1914–1928.
3. Agathias. *Histories*. Translated by J. D. Frendo. Berlin–New York: Walter de Gruyter, 1975.
4. Lactantius. *De Mortibus Persecutorum*. Translated by J. L. Creed. Oxford: Oxford University Press, 1984.
5. Eutropius. *Breviarium ab Urbe Condita*. Translated by H. W. Bird. Liverpool: Liverpool University Press, 1993.
6. Theophylact Simocatta. *Historiae*. Translated by M. Whitby and M. Whitby. Oxford: Clarendon Press, 1986.

II. Arab–islomiy va sharqiy manbalar



1. at-Tabariy, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir. Tarikh ar-rusul wa-l-muluk (Payg'ambarlar va podshohlar tarixi). Qohira nashrlari.
2. Dinavariy. Al-Axbar at-Tiwal. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya, 1996.
3. Mas'udiy. Muruj adh-dhahab wa ma'adin al-jawhar. Beirut: Dar al-Andalus, 1965.
4. Bal'amiy. Tarikh-e Tabariy (forscha qayta ishlangan nusxa). Tehron nashrlari.
5. Firdavsiy. Shohnoma. Tehron: Amir Kabir nashriyoti, turli nashrlar.

III. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar (monografiyalar va maqolalar)

1. Christensen, A. L'Iran sous les Sassanides. Copenhagen: Ejnar Munksgaard, 1944.
2. Frye, R. N. The History of Ancient Iran. Munich: C.H. Beck, 1984.
3. Daryaei, T. Sasanian Persia: The Rise and Fall of an Empire. London–New York: I.B. Tauris, 2009.
4. Howard-Johnston, J. East Rome, Sasanian Persia and the End of Antiquity. Aldershot: Ashgate, 2006.
5. Greatrex, G., Lieu, S. N. C. The Roman Eastern Frontier and the Persian Wars (AD 226–363). London–New York: Routledge, 2002.
6. Greatrex, G., Lieu, S. N. C. The Roman Eastern Frontier and the Persian Wars (AD 363–630). London–New York: Routledge, 2005.